

Акциядорлик жамияти
«Ўзметкомбинат»

БУЙРУҚ

09.12.2025 у. 1 061 и/ч -сонли

Бекобод ш.

«Kombinatda elektron savdolarni tashkil etishni samarali yo'lga qo'yish, "Xaridlar siyosatini" ishlab chiqish, kontragentlarni tekshirish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda xarid komissiyasining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida »

“O'zmetkombinat” AJda davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdolarni tashkil etish, “Tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish siyosati”ni “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-684-son Qonuni va boshqa qonunosti hujjatlari talablari asosida yangi tahrirda ishlab chiqish, o'tkazilayotgan xaridlar yuzasidan Komplaens xizmati tomonidan samarali o'rganish va tegishli xulosa berish tartibini belgilash hamda yangilangan xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash maqsadida BUYURAMAN:

1. Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi (Normatov), Ishlab chiqarishni ta'minlash departamenti (Ashurov) 10.12.2025 yilga qadar “O'zmetkombinat” AJning mavjud shtatlar birligi asosida Ishlab chiqarishni taminlash departamenti tarkibida “Elektron savdolarni tashkil etish” bo'limi tashkil etilsin.
2. Ishlab chiqarishni ta'minlash departamenti (Ashurov), Yuridik departament (Radjabov) va boshqa tegishli mas'ul tarkibiy bo'linmalar 01.01.2026-yilga qadar “O'zmetkombinat” AJda “Tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish siyosati”ni yangi tahrirda ishlab chiqib tasdiqlashga taqdim etilsin.
3. Komplaens xizmati boshlig'i (Asrorov) yangi tahrirdagi “Tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish siyosati”da Komplaens xizmatining xarid jarayonini tekshirishga oid vakolatlari va vazifalarini aniq belgilash, xarid ishtirokchilari kontragentlarni tekshirish, xaridlardagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash hamda jarayonning xarid qonunchiligi talblariga mosligini o'rganishga oid Komplaens nazorat xulosasini olish tartibini belgilasin.
4. “Tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish siyosati” ishlab chiqilib tasdiqlangunga qadar (muddati 01.01.2026 yil) o'tkazilayotgan har bir xarid bo'yicha kontragentlarni tekshirish, xaridlardagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash hamda jarayonning xarid qonunchiligi talblariga mosligini o'rganishga oid Komplaens nazorat xulosasi 1- ilovada keltirilgan chek-listga muvofiq olinishi ta'minlansin.
5. Kombinatni zarur xom-ashyo, materiallar, asbob-uskunalar va xizmatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini baholash, shuningdek, xarid hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirishga mas'ul bo'lgan Kombinatning “Xarid komissiyasi”ning yangi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining o'rinbosari Umumiy masalalar bo'yicha direktor A.M.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv raisi - Bosh
direktor**



Abdullayev B.T.

Xizmat boshlig'i

_____√_____ ASROROV M.K.

Bo'lim boshlig'i

_____√_____ Radjabov N.I.

Boshqarma boshlig'i

_____√_____ АШИУРОВ О.Б.

Xodimlar va tashkiliy rivojlanish
direksiya direktori

_____√_____ NORMATOV B.B.

Boshqaruv raisi - bosh
direktorning maslahatchisi
(xodimlar va tashkiliy rivojlanish
bo'yicha)

_____√_____ Djumaniyazov M.B.

Bo'lim boshlig'i

_____√_____ АЗИМОВА Х.А.

Bo'lim boshlig'i

_____√_____ Xafizov A.M.

Xaridlarni tekshirish CHEK-LISTI

KONTRAGENTGA OID MA'LUMOT

T/r	Kontragentga oid ma'lumotlar	Mavjud ma'lumotlar	Izoh
1	STIR		
2	Ro'yxatdan o'tgan sana		
3	Yuridik manzili		
4	Rahbari		
5	Ta'sischi		
6	Ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari		
7	Faoliyat turi		
8	Korxonaning statusi (<i>faol / nofaol</i>)		
9	Korxonaning maqomi (<i>ishlab chiqaruvchi / rasmiy diller / yetkazib beruvchi</i>)		

Izox: Ushbu ma'lumotnoma xarid jarayoni tashkilotchisi (*mas'ul ijrochi*) bo'linma tomonidan to'ldiriladi.

KONTRAGENTNI TEKSHIRISHGA OID MA'LUMOT

T/r	O'rganish savollari	Holati	Izoh
1.	Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi	Mavjud / mavjud emas	
2.	Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilganligi	Mavjud / mavjud emas	
3.	Kontragentning tashkilot bilan avvalgi shartnomaviy munosabatlardagi salbiy tajribasining mavjudligi	Mavjud / mavjud emas	
4.	Kontragentning boshqa ishtirokchilar bilan afillanganligi	Mavjud / mavjud emas	
5.	Kontragentning tashkilot tizimi xodimlari bilan afillanganligi	Mavjud / mavjud emas	
6.	Kontragentning tashkilot "Xarid komissiyasi" a'zolari bilan afillanganligi	Mavjud / mavjud emas	
7.	Kontragent va unga xizmat ko'rsatuvchi banklarning halqaro sanksiyalar ro'yxatida mavjudligi	Mavjud / mavjud emas	
8.	Kontragent va unga xizmat ko'rsatuvchi banklarning offshor xududdan ro'yxatdan o'tganligi	Mavjud / mavjud emas	
9.	Kontragentning moliyaviy holati, moddiy-texnika, kadrlar va boshqa resurslar bilan ta'minlanganligi (<i>zaruriyat tug'ilganda joyiga chiqqan holda o'rganish</i>)	Mavjud / mavjud emas	
10.	Kontragentda tovar va xizmatlar bilan ta'minlashga oid shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun talab qilinadigan maxsus guvohnoma yoki litsenziyaning mavjudligi	Mavjud / mavjud emas	

Izoh: Mazkur ma'lumotnoma Komplaens xizmati tomonidan to'ldiriladi.

XARID JARAYONINI O'RGANISHGA OID MA'LUMOT

T/r	O'rganish savollari	Holati	Izoh
1.	Xarid predmeti		
2.	Xarid turi		
3.	Xarid turining huquqiy asosi		
4.	Talabnoma buyurtmachisi		
5.	Talabnomaning asoslanganligi	Asosli / asossiz	
6.	Texnik topshiriqning mavjudligi	Mavjud / mavjud emas	
7.	Xarid predmetining shakllangan narxini bugungi kundagi bozor qiymatiga mosligi	Mos / mos emas	
8.	Mahsulot va xizmatlar yuzasidan barcha mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchi yoki rasmiy dillerlardan tijorat takliflari olinganligi	Mavjud / mavjud emas	
9.	G'olib deb tanlangan kontragent tomonidan taklif etilgan tijorat taklifining bozor qiymatiga mosligi	Mos / mos emas	
10.	Mahsulot / xizmatlar bo'yicha "Texnik xulosa" olish jarayonining mavjud tartibga muvofiqligi	Muvofiq / muvofiq emas	
11.	Raqobat va xolislikni ta'minlanganligi	Ta'minlangan / ta'minlanmagan	

Izoh: Mazkur ma'lumotnoma Komplaens xizmati tomonidan to'ldiriladi.

O'RGANISH NATIJASI

	Holat	Izoh	Bartaraf etish bo'yicha taklif
Xavf-xatarning mavjudligi	Mavjud / mavjud emas		

Komplaens xizmati menejeri _____ / _____ / _____
F.I.Sh.ImzoSana

**“O‘zmetkombinat” AJda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining
takliflarini baholash hamda xarid hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirishga mas’ul
bo‘lgan “Xarid komissiyasi”ning
TARKIBI**

Komissiya raisi	Abdullayev B.T.	- Bosh director - Boshqaruv raisi
Komissiya a‘zosi	Turabayev A.I.	- Boshqaruv raisining moliya- iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
Komissiya a‘zosi	Pirmatov R.X.	- Po‘lat eritish kompleksining boshlig‘i
Komissiya a‘zosi	Ashurov O.B.	- Sotib olishlar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i
Komissiya a‘zosi		- Talabnoma kiritgan tarkibiy bo‘linma boshlig‘i
Komissiya kotibi	Shodmatova D.K.	- Tahlil guruhi boshlig‘i

Izoh: Xarid komissiyasi a‘zolari boshqa lavozimga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalar bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.